

Feruza BOYMURODOVA

ORZULARIM RO'YOBİ

Qarshi
«Nasaf» nashriyoti
2006

She'riyat qasrining yo'li olis manzilga qiyos. Unga yetish uchun tinimsiz o'qib-o'rghanish, izlanish kabi og'ir va mashaqqatli so'qmoqlarni bosib o'tish kerak.

Feruza Boymurodovaning she'riy mashqlarini o'qiganda, o'quvchi shunday xulosaga keladi. Yosh muallifga izlanish, o'qib-o'rghanishni yana bir bora eslatgan holda, mo'jazgina to'plamchani esa Sizga havola qildik, aziz kitobxon.

32964
10
Ogj

B 4702620202-57 57-2006 F Boymurodova, 2006 y.
376(10)2006

ISBN 5-7323-0514-0

20.07 Alisher Navciy
nomidagi
O'zbekiston Mif
A1037

ONA VATAN

Iqboli buyuksan
Aziz Vatanim.
Elda sen suyuksan,
Go'zal chamanim.

Quchog'ingda doim,
Yayrab-yashnaylik.
Doim Vatanim deb,
Sevib asraylik.

Allalaring seni
Qalbimda jodir.
Cheksiz mehring esa
Har dilga yordir.

Osmoning musaffo,
Barqaror bo'lsin.
Bag'ri keng Vatanim
Iqboling kulsin.

PALANDARAM

Go'zal tog'lar manzarasi,
Palandaram qir-darasi.
Ochilgan gulu lolasi,
Yo'rg'alar tog' shalolasi.
Xuddi suluv kelinchakdek,
Qoshin qoqib kelar bahor.
Qushlar kuyiga lo'r bo'lar,
Tong otganda salqin nahor.
Qizlari bor anor yuzli,
Alpomishlari bir so'zli.
Kelinlari shahlo ko'zli,
Palandaram, jonim daram.
Bog'lari bor jannatmakon,
Tog'lari Hisor, Qoraxon.
Bunda yayrab yashnar inson,
Palandaram, jonim daram.

VATAN

Ko'zimga surtaman seni tuprog'ing,
Asrab-avaylayman shu go'zal bog'ing.
Sening farzandingmiz, sening iqboling,
Ey jonajon yurtim - jannatim mening.

O'ZBEKISTON ASKLARLARI

Siz tinchlikning posbonlari,
O'zbekiston askarlari.
Qadim Turon o'g'lonlari,
O'zbekiston askarlari.

Sizni sevar keksa-yu yosh,
O'zbekiston askarlari.
Egilmasin hech mag'nur bosh,
O'zbekiston askarlari.

QISH

Mana keldi qishning sovuq,
Juda qisqa kunlari.
Mana keldi zulmat quyuq,
Izg'irinli tunlari.

Bolalarga qayta mazza,
Bir-biriga qor otar.
Qor zavqidan topib lazzat,
Bilmay qolar – kun o'tar.

SIZ BILAN HAYOT GO'ZAL

Ilm yo'lini ochgan,
Yurakka tuyg'u sochgan,
Mehrimga mehr solsan,
Jonajon muallimim,
Bir jahon muallimim.

Siz borki olam go'zal,
Siz borki ongim o'sar.
Siz borki yozdim she'rlar,
Jonajon muallimim,
Bir jahon muallimim.

Doim bizga parvona,
Yondoshasiz do'stona,
Sizsiz ikkinchi ona,
Jonajon muallimim,
Bir jahon muallimim.



BAHOR

Gullar bezar bu keng olamni,
Yurtimizga bahor kelganda.
Xursand etar barcha odamni,
Yurtimizga bahor kelganda.

Bosh ko'tarar rayhon, sumbullar,
Chiroy ochar bog'imda gullar,
Chamanlarda sayrar bulbullar,
Yurtimizga bahor kelganda.

Ko'rgan ko'zlar yayrar, quvonar,
Dilda yangi orzular yonar.
Butun borliq qayta uyg'onar,
Yurtimizga bahor kelganda.



TONG

Tong otganda zarrin quyosh,
Yana taratadi nur.
Uyg'onadi borliq,dunyo,
Dillar qiladi huzur.

Tongning ajib bir sehri bor,
Xush yoqadi bu damlar.
Atrof shuncha sof, beg'ubor,
Zavqlanadi odamlar.

Kecha g'amgin bo'lgan inson,
Bugun xursand va mag'nur.
Yuzlarida tabassumi,
Chaqnar ko'zlaridan nur.

BOYCHECHAK

Bahor kelganda bosh ko'tarib yerdan dumalab,
Gullaringni ko'rsatasan butun olamga.
Har bir ko'zni qamashtirib, ko'kni chamlab,
Boychechakjon qadrlisan qirim, dalamga.

Navbahorga elchi bo'lib kelasan har vaqt,
Yetti kunlik farishta deb e'zozlar xalqim.
Insonlarga ulashaver bahoriy tilak,
Guling bilan ochiladi bahoriy taqvim.



BOLALIGIM

O'tar yillar ba'zan ohista,
Ulg'ayarkan murg'akkina zot.
Bolalikni qoldirib asta,
To'xtamasdan o'tarkan hayot.

Ochilgan bir g'uncha edik biz,
Bolalikning nurli bog'ida.
Endi esa gulga aylandik,
Yoshlikning bir go'zal chog'ida.

Yoshlikni ham ortda qoldirib,
O'tib borar hayot karvoni.
Do'stim, sizni ko'rmasam bir kun,
Ko'payadi ko'ngil armoni.

Kunlar o'tsin, mayli yillar ham,
Do'stligimiz mangu bog'lansin.
Oramizni buzmoq bo'lganlar,
Niyatlari puchga aylansin.

Do'stim, senga baxt tilaydirman,
Baxtili bo'lgin mayli umrbod.
Baxtdan senga taxt tilaydirman,
Do'stligimiz bo'lmasin barbod.

SHE'R YOZAMAN

She'r yozaman, ilhomlarim,
Jo'shib-jo'shib kelganda.
She'r yozaman ba'zan g'amgin-
Xayollarga botganda.

She'r yozaman, ko'zlarimdan-
Marjon yoshlar oqqanda.
She'r yozaman, o'ylarimdan-
Ezgu hislar boqqanda.

She'r yozaman o'rab gulga
Yozganlarim girdini.
She'r larimda jo etaman
Butun hayot dardini.



KAPALAK

Senga havas qilaman doim,
Qanotlaring shamol taraydi.
Nozikliging juda muloyim,
Kapalakjon ko'ngil yayraydi.

ONAJONIM, SIZNI KUTAMAN

Derazamdan mo'ralab sekin,
Sog'inganda mehrim tutaman.
Ko'zlarimni to'ldirib lekin,
Onajonim, sizni kutaman.

Allalaydi tunlar ko'zlarim,
Allalaydi onang uzoq deb.
Va qalbimga quloq tutaman,
Onajonim, sizni kutaman.

Ko'zlarimga kelsa hamki yosh,
Bu qalbimga bo'lsamda sirdosh.
Yurak bag'rim tilib o'taman,
Onajonim, sizni kutaman.

O'z-o'zimga savol beraman,
Talpinaman quchog'ingizga.
Sevinch to'lgan yuragim bilan,
Intilaman doimo sizga.

MUHABBAT

Sen hayotim tug‘yonisan,
Muhabbatim.
Orzu-armon ummonisan,
Muhabbatim.

Mayli yasha sen dilimda,
Ey, totli his.
Umidlar uyg‘ot ko‘nglimda,
Hijronimni kes.

Sekin qo‘llarimdan,
Tutgin, muhabbat.
Dunyoni yanada,
Charog‘on ko‘rsat.

Sekin qo‘llarimdan
Tutgin muhabbat.
Orzularim sari,
Eltgin muhabbat.

XAYR, MAKTABIM

Mana o'tib eng zavqli yillar,
Jaranglaydi so'nggi qo'ng'iroq.
Ta'zim aylab biz barcha yoshlar,
Xayrlashdik sen bilan biroq.

Xayr endi jonajon maktab,
Xayr mening ilm bulog'im.
Sizga ta'zim, sizgadir rahmat,
Aziz ustoz, do'stim, sirdoshim.

Eh, qaytsaydi beg'ubor damlar,
Bag'ringda men quvnasam yashnab.
Ko'zlarimdan ketardi namlar,
Ey mehribon, beg'ubor mакtab.

Bugun senla xayrlashmoqda,
Yig'ilibmiz shu keng davrada.
Xush sadolar kirsin quloqqa,
Biz voyaga yetgan pallada.



MUNDARIJA

Ona Vatan.....	3
Palandaram.....	4
Vatanim.....	4
O'zbekiston askarlari.....	5
Qish.....	5
Siz bilan hayot go'zal.....	6
Bahor.....	7
Tong.....	8
Boychedak.....	9
Bolaligim.....	10
She'r yozaman.....	11
Kapalak.....	12
Onajonim, sizni kutaman.....	12
Muhabbat.....	13
Xayr, maktabim.....	14

ADABIY-BADIY NASHR

BOYMURODOVA FERUZA

ORZULARIM RO'YOBİ

She'rlar

O'zbek tilida

Muharrir: Z.Omonova.

Texnik muharrir: Ch.Rahmonov.

Musahhih: Z.Ochilova.

IB: 1052

Terishga 30.10 2006-yilda berildi. Bosishga 2.11.2006-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84 x108 '/'. Shartli bosma tabog'i 0,84. Shartli bo'yoq-ottisk 0,90. Nashr tabog'i 0,42 . 60-2006-shartnoma.112-buyurtma. 100 nusxada. Erkin narxda.

«Nasaf» nashriyoti, 730018. Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.

Qashqadaryo viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi huzuridagi "Matbaa" sexida chop etildi.

730018. Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.